

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Boshlang'ich sinflarda hikoya janrida o'qitish meodikasi

Nazarova Sevara Usmonali qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yonalishi 2- kurs talabasi.

Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Özbek tili va adabiyot kafedrasи òqituvchi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda hikoyalar o'qitish metodikalari haqida so'z yuritiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hikoyalarni o'qitishning naqadar e'tiborga sazovor hamda zarur ekanligi to'g'risida ham bir qancha fikrlar keltirib o'tiladi. Shuningdek, o'quvchilarga hikoyalarni o'qitishda qo'llanadigan bir qancha metodlar keltirib o'tiladi. Boshlang'ich ta'lim ta'lim tizimining asosiy fundamenti ekanligini hisobga olgan holda, mazkur sohada e'tibor berilishi lozim bo'lgan bir qancha masalalar yuzasidan ham bir qancha fikr va mulohazalar ham maqoladan o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: hikoya, metod, pedagog, ta'lim, sujet, personaj, portret, o'qish, janr, ertak, she'r, maqol, masal, hikoya, o'qitish, psixologik

KIRISH. Shuni ta'kidlash joizki, inson hayotida boshlang'ich ta'lim juda katta va muhim rol o'ynaydi. Buni o'quvchilar dunyoqarashi aynan boshlang'ich sinf davrida rivojlanishidan bilib olish mumkin. Dunyoqarashi keng bo'lgan inson har qanday sohada o'z qobiliyatlarini namoyon qila oladi va atrofidagi insonlarga ta'sir o'tkaza oladi. Shaxs ma'naviy fazilatlarining qaysidir miqdori tug'ma bo'lsada, ular, asosan, ta'lim-tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, ta'lim jarayon jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan, yoshlarimizning mentaliteti va ma'naviy qiyosafini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik ko'nigmalar boshlang'ich sinfda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarda shakllantiriladi. Jumladan, misollar yechish, masalalarga to'g'ri

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yondashish, turli xildagi matnlar, masalan, hikoyalar, she'rlarni o'qish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari bosqichmabosqich shakllantirib boriladi. Mazkur jarayonlarda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. Bu o'rinda uning o'quvchilarni yo'naltirishi, bolalarga mos metodlardan foydalanishi, ularning qiziqishlarini bilgan holda, darslikda berilgan topshiriqlarni yechishga, ularni tahlil qilishg o'rgatishi lozimdir. Boshlang'ich ta'limda hajm jihatidan ixcham bo'lgan badiiy asar janrlaridan hikoya, ertak, masal, she'r, rivoyat, asotirlar, dostondan parcha, xalq og'zaki ijodi namunalari va ilmiy-ommabop maqolalaro'qtiladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuksak bilim va saviya, pedagogik mahoratni talab qilsa, o'quvchidan darsga qiziqish, intilish, va berilgan bilimlarni puxta egallahshi talab etadi. Maktab oldiga qo'yilgan vazifalar ,kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar umumiyo rivojlanishining o'sganligi ,psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar, sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o`zgartirish kiritishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinflarning o'qish darsliklarida amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar berilgan. O'qish darsida hikoya ,she'r, ertak,masal,maqol, doston,rivoyat va topishmoq kabi janrlar o'rganiladi. Bunday turli janrdagi asarlar yaratilishi,uslubi jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib,o'quvchilarga ham ta'siri turlicha bo'ladi . Shuning uchun ,turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib,unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqeа, hayotning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya boshlang'ich sinflar uchun mos janr . O'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, voqeа-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rinn egallaydi . Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilarga o'z fikr-mulohazalarini bildirishi uchun vaqt beriladi. O'qilgan hikoya yuzasidan beriladigan savollar orqali o'quvchilarga asarning yoqqan-yoqmaganligi, qaysi qahramon xarakteri ta'sir etgan- etmaganligini aniqlanadi. Shundan so'ng hikoya syujeti, voqeaning yonalishini ochishga ,personajlar xarakterini tushunishga, asarning asosiy g'oyasini ochishga qaratilgan savollar beriladi. Boshlang'ich

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sinflarda o'quvchilarni ertakning o'tkir , maroqli syujeti, favqulodda ajoyib voqealari maftun etadi.Lekin hikoya janri hayotiyligi bilan o'ziga xosdir. Hikoyada inson hayoti , u bilan bog'liq voqealar haqidagi lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri va xususiyatlari bilan qiziqadilar. Boshlang'ich sinf "O'qish" darsliklarida berilgan hikoyalar mavzu jihatidan xilma- xil bo'lib,qahramonlar ham bir -biridan farq qiladi.O'quvchilar hikoyadagi qahramonlarga baho berishda, o'z shaxsiy- axloqiy tushunchalaridan kelib chiqib ta'riflaydilar. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan asarni tahlil,qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarni kiritishdan iborat.

Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biridir. Psixolog olimlarning tekshiruvlaridan ma'lum bo'lishicha ,asarni idrok qilishga , bilim olishga xizmatqiladigan komponentlar bi lan birga , uni emotsional-estetik xis etish ham kiradi. Hikoyada qahramonning nima qilishi emas,nima uchun shunday qilganini bilish muhimdir. O'qish darslarida o'qilayotgan asarning ongli o'zlashtirilishini ta'minlashda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini albatta inobatga olish zarur. Shuningdek o'qituvchi o'quvchi bilan yakka yoki guruh bilan ishslashda ish turlari bo'yicha topshiriqlar ko'rsatilgan tavsiyalarni ishlab chiqishi va o'quvchilarga topshiriqlar tartib raqamini ko'rsatishi mumkin.Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xattiharakatini yaxshi tushunmasliklari , ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchisavolni juda o'ylab tuzishi , u bolani fikrlashga , o'ylashga majbur etadigaqahramonning xatti-harakati voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga , ijobiy va salbiy tomonlarmi aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda , asarning janriy xususiyatini hisobga olib, o'ziga xos usullarini tanlash lozim. Agar ushbu metodik tavsiyalardan maqsadli foydalanilsa, o'quvchilar ijodiy faolligi ortadi, mustaqil izlanishi va fikrlash doirasi kengayadi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ham badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning savyasiga mos bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ibragimov, X., & Abdullaeva, S. H. (2008). Theory of pedagogy. Science and Technology.
- 2.Ибрагимов, X. И. (2020). Организация самостоятельной работы студентов в условиях цифровизации вузовского образования. Наука и образование сегодня, (7 (54)), 74-75.
3. Ibragimovich, X. I. (2021). O 'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TEKNOLOGIYALARINI QO 'LLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 209-214.
4. Ibragimov, X. I., Yo'ldoshev, U. A., & Bobomirzayev, X. (2009). " Pedagogik Psixologiya" O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiriyoti Toshkent.
5. Ибраимов, X. И. (2019). Педагогические и психологические особенности обучения взрослых. Academy, (10 (49)), 39-41.
6. Атауллаев, Ф. Ф. У., & Ибраимов, X. И. (2019). Понятие профессионально-коммуникативной компетентности будущих учителей в психолого-педагогических исследованиях. Вопросы науки и образования, (1 (42)), 70-74.
- 7.Sh.M. Mirziyoyev "Harakatlar strategiyasi".2017.02.07
- 8.R. Mavlyanova . "Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", Toshkent - v. 2009.